



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍÑ INTEGRACIYASÍ»

atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

SHAXS BARKAMOLLIGIDA PROFESSIONAL KOMPETENTLIKNING ROLI

Kurbanbaeva Orazgul,
NDPI 1- bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Bu tezisda o‘qituvchilarimizda kompetentlikning ahamiyati va o‘qituvchilarda pedagogik kompetentsiyaga ega bo‘lishi va kasbiy malakalarni rivojlanganlik darajasi haqida aytilgan. Barkamol insonni shaklantirishda kompetenlikning omillari haqida ba‘tafsil to‘xtalgan.

Kalit so‘zlar: kompetent, shaxs, o‘qituvchi, pedagogika.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi tufayli hozirgi davrda uzlusiz oliy ta’lim tizimining davr talablariga javob beradigan mutaxassislarni fan asoslarini egallash bilan bir qatorda jahon andozalariga mos ravishda kasbiy malakalar bilan qurollantirish, ularning kasbiy malakasini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Zero, mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: «Aql-zakovatli, yuksak ma’naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi». Bu esa zamonaviy o‘qituvchi buyuk ma’naviy sifatlarga ega, umuminsoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, yetuk kadrga munosib faoliyat yuritishi talab etiladi. Hozirgi davrning ushbu talabi - o‘qituvchilarni yuksak didaktik mahorat va texnikaviy ko‘nikmalariga ega, pedagogik kompetentsiya texnologiyalaridan voqif bo‘lgan, umummadaniy fazilatlarga erishgan shaxs sifatida ta’lim-tarbiya jarayonining ijodkori bo‘lishini isbotlamoqda.

Shu jihatdan olganda, barkamol insonni shaklantirish avvalo, o‘qituvchidan pedagogik kompetentsiyasiga ega bo‘lishni, ulkan mahorat va mas’uliyat xissiyoti talab qiladi. Ustozlik qila olish mahorati va tarbiyachilik samarador zamonaviy modeli mavjud emas. Ushbu kasbiy maxoratni egallash uchun insondan kuchli irodani, ijodiy fikrlashni, uzlusiz izlanishni, pedagogik texnologiya, tajriba talab etiladi.

Ma’lumki, XX asr yuksak informatsion-texnologiyalar davri sifatida global o‘zgarishlarning inson omiliga, jamiyatga, yoshlar ongiga ko‘rsatayotgan ta’siri kun sayin kuchayib borayotganligi ham ayni haqiqatdir. Ushbu sharoitda ziyorilar, pedagoglar xamda ular bilan bir qatorda ijtimoiy psixologlar e’tiborini tortayotgan masalalar va muammolar ko‘pki, ular orasida rivojlanib kelayotgan avlodni har tomonlama bilimli, salohiyatli, yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida shakllantirish, ularning kasbiy salohiyatlarini oshirishning zamonaviy, samarali ijtimoiy -psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish, xamkorlik



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındağı IV Xalıqaralıq ilmiy-teoriyalıq konferenciya

faoliyatining sub'ektlari sifatida gavdalanuvchi pedagog-ustozlarning professional kompetentsiyasini rivojlantirish fan uchun ham o'ta dolzarb masaladir.

Zero, zamonaviy oliy ta'lim tizimida shakllanayotgan professional mutaxassislar, kelajagimizning vorislari, ijodiy fikrlovchi, yuksak ma'naviyatli shaxslardir. O'qituvchi kompetentsiyasi pedagogik (o'quv - tarbiyaviy) jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali tarzda tashkil etish, ularni shaxsning kamoloti maqsadlari sari yo'naltirish, ta'lim sub'ektlarida dunyoqarashni barqarorlashtirish, pedagogik qobiliyatini shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir. O'qituvchining kompetentligi natijasida tajriba orqali orttirgan xususiyati, pedagogik sohasidagi moslashuvchanlik ijobiyo'nikma va ijodkorlik asosida tarkib topgan kasbiy ko'nikmalarning nazariy asoslari shakllanadi.

Alovida ta'kidlash mumkinki, masalaning shu kabi dolzarbligidan kelib chiqib, oxirgi yillarda ayniqla, yurtimiz O'zbekistonda pedagogning va birinchi navbatda bo'lg'usi pedagoglarning professional kompetentsiyasi muammosiga e'tibor juda kuchaydi. Shu bois ham ko'plab olimlar va izlanuvchilar amaliyotchilar bilan birgalikda ushbu fenomenning mohiyati, kelib chiqishi, shakllanish bosqichlari va samaradorligiga ta'sir etuvchi mexanizmlarga diqqatni qaratmoqdalar. Biz ham ushbu fenomen va atamaning tub mohiyatini ilmiy-metodologik talqinini mavjud adabiyotlar asosida o'rganib chiqdik.

“Kompetentsiya” atamasi keng ma'noda umumiyligi masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo'llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Lotincha “campetere” – “muvofiq bo'lmoq” so'zidan kelib chiqqan. Oxirgi yillarda “kompetentsiya” atamasi turli sohalarda qo'llanilmoqda: pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, huquqshunoslik, tilshunoslik, madaniyat sohalarida, shuningdek, tashkilot, muassasa yoki kompaniyaning muhim kompetentsiyalari to'g'risida gap ketganda ham bu atamaga tez-tez murojaat qilinmoqda. “Kompetentsiya” va “kompetentlik” atamalari o'zakdosh bo'lib, ular G'arb ilmiy adabiyotida 60 – yillarning oxiri, 70 – yillarda paydo bo'ldi. “Kompetentsiya” atamasi milliy pedagogika va psixologiyada XX asrning 90 yillaridan e'tiboran ko'proq ishlatala boshlandi. “Kompetentsiya” atamasi “pedagogik madaniyat”, “kasbiy layoqatlilik”, “kvalifikatsiya” atamalari bilan ma'nodosh hisoblanib kelindi. O'zbek olimi M.Ochilov “kompetentsiya” tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: “kompetentsiya - bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiyo'nikma, natijalarni faoliyatdagi ko'rinishi”



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍÑ INTEGRACIYASÍ»

atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

Demak, har qanday kompetentlikning asosini aslida o‘qituvchi-pedagog tomonidan yaratilgan shunday ta’lim va tarbiya olishga bog’liq psixologik muhitni tashkil etish hosil qiladiki, uning oxirgi samarasi bolaning aqlan va har tomonlama rivojlanishi, bilim va malakalarining ortib borishi tashkil etadi. Pedagoglarning fikrlariga ko‘ra, o‘qituvchining o‘z faoliyatidagi kompetentligi o‘quvchilarni o‘ylashga, mushohada qilishga, o‘z nuqtai nazarini erkin bayon etib, uni tortinmay o‘qituvchi bilan bo‘lishishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva Sh.A. Zamonaviy O‘qituvchi kompetentsiyasi. Monografiya.-T., 2016 – 72 b.
2. Azizzodjaeva N. Yangi pedagogik texnologiyalar va O‘qituvchi mahorati. - Toshkent: Meros, 2009.- B.34.
3. Abu Nasr Farobi. Fozil odamlar shahri. –Toshkent: O‘qituvchi, 1998.- B.49.
4. Ochilov M. O‘qituvchining muomala madaniyati. – Qarshi: Nasaf, 2012.-66-b.
5. Petrovskaya L.A. Kompetentnost v obchenii. Sotsialno-psixologicheskiy trening / L.A. Petrovskaya. M.: Izd-vo MGU, 1989. - 216 s.